OTA-ONALARNING BOG‘LANISH USLUBLARI VA ULARNING FARZANDLARI BILAN HISSIY MUNOSABATLARI: EMPIRIK TADQIQOT NATIJALARI

Shomurodova Makhfuza Aslitdinovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
shomurodovama@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ota-onalarning bog‘lanish uslublari va ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqotda 5–14 yoshdagi farzandlarni tarbiyalayotgan 229 nafar ota-ona ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 146 nafari to‘liq oilalar, 83 nafari esa to‘liq bo‘lmagan oilalar vakillarini tashkil etgan. Tadqiqotda ota-onalarning bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochishi, shuningdek, farzand bilan munosabatlardagi ishonch, hissiy yaqinlik, masofa va taranglik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Natijalar bog‘lanish xavotiri ishonch va hissiy yaqinlikning pasayishi, masofa va taranglikning ortishi bilan, yaqinlikdan qochish esa ishonch va hissiy yaqinlikning pasayishi, psixologik masofa va taranglikning ortishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. To‘liq va to‘liq bo‘lmagan oilalarda ota-onalarning bog‘lanish turlarining taqsimlanishida ham farqlar aniqlandi. Shuningdek, ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va farzandlar bilan hissiy munosabatlarini optimallashtirishga qaratilgan 12 sessiyali psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturining natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ota-onalar bilan psixologik ishlashda bog‘lanish xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *bog‘lanish, bog‘lanish uslubi, bog‘lanish xavotiri, yaqinlikdan qochish, ota-ona va farzand munosabatlari, hissiy yaqinlik, ishonch, masofa, taranglik, psixologik qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация. *В статье представлены результаты эмпирического исследования взаимосвязи между стилями привязанности родителей и характером их эмоциональных отношений с детьми. В исследовании приняли участие 229 родителей, воспитывающих детей в возрасте от 5 до 14 лет, из них 146 представляли полные семьи и 83 — неполные семьи. Изучались показатели тревожности привязанности и избегания близости, а также особенности эмоциональных отношений родителей с детьми, включающие*

доверие, эмоциональную близость, дистанцию и напряжённость. Полученные результаты показали, что тревожность привязанности связана со снижением доверия и эмоциональной близости, а также с повышением дистанции и напряжённости во взаимодействии с ребёнкомИзбегание близости также характеризовалось снижением доверия и эмоциональной близости, а также увеличением психологической дистанции и напряжённости. Выявлены различия в распределении типов привязанности у родителей из полных и неполных семей. В статье также представлены результаты реализации 12-сессионной программы психологической поддержки родителей, направленной на оптимизацию особенностей привязанности и эмоциональных отношений с детьми. Полученные результаты подчёркивают значимость учёта особенностей привязанности родителей при организации психологической помощи и сопровождения семей.

Ключевые слова: *привязанность, стиль привязанности, тревожность привязанности, избегание близости, детско-родительские отношения, эмоциональная близость, доверие, психологическая дистанция, эмоциональная напряжённость, психологическая поддержка.*

Abstract. *The article presents the results of an empirical study examining the relationship between parental attachment styles and the emotional quality of parent–child relationships. The study involved 229 parents raising children aged 5 to 14 years, including 146 parents from intact families and 83 parents from single-parent families. The study examined attachment anxiety and avoidance of closeness, as well as four dimensions of emotional parent–child relationships: trust, emotional closeness, distance, and tension. The findings demonstrated that attachment anxiety was associated with lower levels of trust and emotional closeness and with higher levels of distance and emotional tension in interactions with children. Avoidance of closeness was also associated with lower trust and emotional closeness, as well as greater psychological distance and emotional tension. Differences were identified in the distribution of attachment types among parents from intact and single-parent families. The article also presents the results of a 12-session psychological support programme aimed at optimizing parental attachment characteristics and improving emotional relationships with children. The findings highlight the importance of considering parental attachment characteristics when developing psychological support and counselling programmes for families.*

Keywords: *attachment, attachment style, attachment anxiety, avoidance of closeness, parent–child relationships, emotional closeness, trust, psychological distance, emotional tension, psychological support.*

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlar bolaning psixologik rivojlanishi, emotsional xavfsizligi va shaxslararo munosabatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabatlarning mazmuni va sifati ko‘p jihatdan ota-onaning farzand bilan emotsional aloqa o‘rnatish, uning ehtiyojlarini anglash va ularga javob berish xususiyatlari bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ota-onaning bog‘lanish xususiyatlarini o‘rganish farzand bilan shakllanadigan hissiy munosabatlarning psixologik mexanizmlarini tushunish imkonini beradi.

Bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, yaqin munosabatlarda shakllangan psixologik tajriba shaxsning boshqa insonlar bilan munosabat qurish usullarida namoyon bo‘lishi mumkin [1; 6]. Ota-onaning bog‘lanish tizimidagi xavotir va yaqinlikdan qochish kabi xususiyatlar uning farzand bilan munosabatlarida ishonch, hissiy yaqinlik, psixologik masofa va taranglik kabi ko‘rsatkichlarda aks etishi ehtimoli mavjud. Shu sababli ota-onaning bog‘lanish xususiyatlarini farzand bilan hissiy munosabatlar kontekstida kompleks o‘rganish amaliy psixologiya uchun ham muhimdir.

Mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlarini faqat alohida tipologik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish kabi o‘lchamlar hamda farzand bilan hissiy munosabatlarning bir qator ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot O‘zbekiston sharoitida ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy munosabatlarning psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotda 5–14 yoshdagi farzandlarni tarbiyalayotgan 229 nafar ota-ona ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 146 nafari to‘liq oilalar, 83 nafari esa to‘liq bo‘lmagan oilalar vakillaridan iborat bo‘ldi. Tadqiqot Buxoro, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani va Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi «Inson» ijtimoiy xizmat markazlari bazasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi ota-onalarning bog‘lanish uslublari va ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, shuningdek, ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va farzandlar bilan hissiy munosabatlarini optimallashtirishga qaratilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturining samaradorligini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ota-onalarning bog‘lanish uslublari va ularning asosiy psixologik ko‘rsatkichlarini aniqlash.
2. Ota-onalarning bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish xususiyatlarini o‘rganish.

3. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlarning ishonch, hissiy yaqinlik, masofa va taranglik ko‘rsatkichlarini aniqlash.

4. Bog‘lanish xususiyatlari bilan ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilish.

5. To‘liq va to‘liq bo‘lmagan oilalarda ota-onalarning bog‘lanish turlarining taqsimlanishidagi farqlarni aniqlash.

6. Ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va farzandlar bilan hissiy munosabatlarini optimallashtirishga qaratilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturi natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotda ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlarini aniqlash uchun Brennan, Clark va Shaver tomonidan ishlab chiqilgan “Yaqin munosabatlar tajribasi” (Experiences in Close Relationships — ECR) metodikasining tadqiqot maqsadlariga moslashtirilgan variantidan foydalanildi [3]. Mazkur metodika yordamida bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichlari baholandi. Ota-onalarning bog‘lanish profillarini aniqlash maqsadida Griffin va Bartholomewning Relationship Scales Questionnaire metodikasidan foydalanildi [7]. Ushbu metodika asosida xavfsiz, xavotirli, qochuvchi va qo‘rquvli bog‘lanish turlari ajratildi [4; 7]. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlarni o‘rganish uchun mualliflik so‘rovnomasi qo‘llanildi. So‘rovnoma ishonch, hissiy yaqinlik, masofa va taranglik ko‘rsatkichlarini baholashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari

Dastlab ota-onalarning bog‘lanish turlari bo‘yicha taqsimoti tahlil qilindi. 229 nafar ishtirokchining 67 nafari (**29,3%**) xavfsiz, 55 nafari (**24,0%**) xavotirli, 50 nafari (**21,8%**) qochuvchi va 57 nafari (**24,9%**) qo‘rquvli bog‘lanish turiga mansub ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, tadqiqotda xavfsiz bog‘lanish turiga ega ota-onalar bilan bir qatorda xavotirli, qochuvchi va qo‘rquvli bog‘lanish xususiyatlari namoyon bo‘lgan ota-onalarning ham salmoqli qismi mavjudligi kuzatildi. Ushbu natijalar ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlarini farzand bilan hissiy munosabatlar kontekstida alohida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida ota-onalarning farzandlari bilan hissiy munosabatlari to‘rtta asosiy ko‘rsatkich — **ishonch, hissiy yaqinlik, masofa va taranglik** bo‘yicha baholandi. Umumiy natijalarga ko‘ra, ishonch ko‘rsatkichi **2,02±0,52**, hissiy yaqinlik **2,16±0,48**, masofa **3,14±0,50**, taranglik esa **3,38±0,56** ni tashkil etdi. Olingan natijalar ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari bilan farzandlari bilan hissiy munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Xususan, bog‘lanish xavotiri yuqori bo‘lgan sari ota-onaning farzandga nisbatan ishonchi pasayib, hissiy yaqinlik kamayishi, psixologik masofa va munosabatlardagi taranglik esa ortib borishi

kuzatildi. Bog‘lanish xavotiri bilan ishonch o‘rtasidagi korrelyatsiya r=-0,52 (p<0,001), hissiy yaqinlik bilan r=-0,48 (p<0,001), masofa bilan r=0,50 (p<0,001) va taranglik bilan r=0,56 (p<0,001) ni tashkil etdi. Xuddi shunday, yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichi ham ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlarning ayrim jihatlari bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikni namoyon etdi. Yaqinlikdan qochish ortishi ishonchning (r=-0,45; p<0,001) va hissiy yaqinlikning (r=-0,51; p<0,001) pasayishi, psixologik masofaning (r=0,54; p<0,001) hamda taranglikning (r=0,47; p<0,001) ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Oilaning tuzilishiga ko‘ra bog‘lanish turlari

Tadqiqotda to‘liq va to‘liq bo‘lmagan oilalardagi ota-onalarning bog‘lanish turlari ham alohida tahlil qilindi. To‘liq oilalarda xavfsiz bog‘lanish turi 34,9%, xavotirli tur 21,2%, qochuvchi tur 23,3% va qo‘rquvli tur 20,6% ni tashkil etdi.

To‘liq bo‘lmagan oilalarda esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 19,3%, 28,9%, 19,3% va 32,5% bo‘ldi. Mazkur natijalar oilaning tuzilishi bilan ota-onalarning bog‘lanish turlari taqsimoti o‘rtasida farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotda oilaning to‘liq yoki to‘liq bo‘lmaganligi ota-onaning bog‘lanish xususiyatlarining bevosita sababi sifatida talqin qilinmaydi. U oiladagi psixologik yuklama, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ota-onaning farzand bilan aloqasi barqarorligi bilan bog‘liq kontekstual shartlardan biri sifatida qaraladi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturi natijalari

Tadqiqotning amaliy bosqichida ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va farzandlari bilan hissiy munosabatlarini optimallashtirishga qaratilgan **12 sessiyali psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturi** amalga oshirildi. Eksperimental guruhda 116 nafar ota-ona, nazorat guruhida esa 113 nafar ota-ona ishtirok etdi.

Dasturdan oldin va keyin olingan natijalarni taqqoslashda eksperimental guruhda bog‘lanish xavotiri ko‘rsatkichi 3,71±0,49 dan 3,12±0,44 gacha, yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichi esa 3,29±0,46 dan 2,86±0,41 gacha kamaygani aniqlandi. Har ikki o‘zgarish ham statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, p<0,001 ni tashkil etdi.

Dastur yakunidan so‘ng eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi hissiy munosabatlar ko‘rsatkichlari ham farq qildi. Eksperimental guruhda ishonch 2,28±0,40, nazorat guruhida esa 1,82±0,44; hissiy yaqinlik mos ravishda 2,34±0,37 va 1,96±0,40; masofa 2,91±0,39 va 3,25±0,42; taranglik esa 3,04±0,41 va 3,49±0,45 ni tashkil etdi. Barcha farqlar p<0,001 darajasida statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan. Natijalar bo‘yicha hisoblangan effekt hajmi ko‘rsatkichlari ham sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi: bog‘lanish xavotiri uchun Cohen’s d=1,03, yaqinlikdan qochish uchun d=0,86, ishonch uchun d=1,09, hissiy yaqinlik uchun d=0,98, masofa

uchun d=0,84 va taranglik uchun d=1,04. Shunday qilib, tadqiqot natijalari ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlarining muhim psixologik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturidan so‘ng eksperimental guruhda bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichlarining pasayishi hamda ishonch va hissiy yaqinlikning oshishi, masofa va taranglikning kamayishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlari o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochishning yuqori ko‘rsatkichlari ishonch hamda hissiy yaqinlikning pasayishi, psixologik masofa va munosabatlardagi taranglikning ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu natijalar ota-onaning yaqin munosabatlarni qabul qilishi va ularda o‘zini tutish xususiyatlari farzand bilan kundalik emotsional muloqotida ham namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

To‘liq va to‘liq bo‘lmagan oilalardagi natijalar ham e’tiborga loyiqdir. To‘liq bo‘lmagan oilalarda xavfsiz bog‘lanish ulushi nisbatan pastroq, xavotirli va qo‘rquvli bog‘lanish turlarining ulushi esa yuqoriroq bo‘lgan. Biroq ushbu farqlarni oilaning tuzilishi bilan bevosita sababiy bog‘lash to‘g‘ri emas. Oilaning tuzilishi ota-onaning psixologik holatiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyat yuklamasi va farzand bilan munosabatlarning barqarorligi bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi lozim.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturidan keyingi natijalar ota-onalarning bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichlari kamayganini, shuningdek, farzand bilan hissiy munosabatlarning ayrim ijobiy ko‘rsatkichlari yaxshilanganini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar ota-onalar bilan psixologik ishlashda ularning faqat tarbiyaviy ko‘nikmalariga emas, balki shaxsiy bog‘lanish tajribasi va emotsional munosabat qurish xususiyatlariga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalardan ota-onalar bilan psixologik maslahat, psixoedukatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bunda ota-onaning bog‘lanish xususiyatlarini aniqlash, farzand bilan hissiy aloqa sifatini baholash va aniqlangan ehtiyojlarga mos psixologik yordam shaklini tanlash muhim hisoblanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ota-onalarning bog‘lanish xususiyatlari va ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochishning

yuqori darajalari ishonch va hissiy yaqinlikning pasayishi, psixologik masofa hamda taranglikning ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

12 sessiyali psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturidan keyin eksperimental guruhda bog‘lanish xavotiri va yaqinlikdan qochish ko‘rsatkichlarining pasayishi, shuningdek, ota-ona va farzand o‘rtasidagi hissiy munosabatlarning ijobiy ko‘rsatkichlarida o‘zgarishlar kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ota-onalar bilan psixologik ishlashda bog‘lanish xususiyatlarini hisobga olish, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi hissiy yaqinlik va ishonchni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvlardan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bowlby J. *Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment*. — New York: Basic Books, 1969. — 428 p.

2. Ainsworth M. D. S., Blehar M. C., Waters E., Wall S. *Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation*. — Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. — 391 p.

3. Brennan K. A., Clark C. L., Shaver P. R. Self-report measurement of adult attachment: An integrative overview // *Attachment Theory and Close Relationships* / ed. by J. A. Simpson, W. S. Rholes. — New York: Guilford Press, 1998. — P. 46–76.

4. Bartholomew K., Horowitz L. M. Attachment styles among young adults: A test of a four-category model // *Journal of Personality and Social Psychology*. — 1991. — Vol. 61, No. 2. — P. 226–244.

5. Cassidy J., Shaver P. R. (Eds.). *Handbook of Attachment: Theory, Research, and Clinical Applications*. — 3rd ed. — New York: Guilford Press, 2016. — 1068 p.

6. Mikulincer M., Shaver P. R. *Attachment in Adulthood: Structure, Dynamics, and Change*. — 2nd ed. — New York: Guilford Press, 2016. — 690 p.

7. Griffin D., Bartholomew K. Models of the self and other: Fundamental dimensions underlying measures of adult attachment // *Journal of Personality and Social Psychology*. — 1994. — Vol. 67, No. 3. — P. 430–445.

8. Shomurodova M. A. *Ota-onalarning bog‘lanish uslubi va ularning farzandlari bilan hissiy munosabatlariga ta’siri*: dissertatsiya. — Toshkent, 2026.